

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI



TASDIQLAYMAN”

Buxoro davlat universiteti

rektor O.X.Xamidov

2025 yil

**“O‘ZBEKISTONNING ENG YANGI TARIXI”
FAN DASTURI**

Barcha bakalavr yo‘nalishlari uchun

Buxoro – 2025

Fan/modul kodi UYT1104		O‘quv yili 2025-2026	Semestr 1,2	ECTS - Kreditlar 4	
Fan/modul turi Majburiy		Ta’lim tili O‘zbek va rus		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)	Mustaqil ta’lim (soat)	Jami yuklama (soat)	
	O‘zbekistonning eng yangi tarixi	48	72	120	
2.	I. Fanning mazmuni Fanni o‘qitishning maqsadi – O‘zbekiston jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga katta hissa qo‘shgan hududlardan biri, o‘zbek xalqi boy tarixiy o‘tmish va bebaho ma’naviy merosga egaligi, mustaqillik yillarida O‘zbekiston Respublikasida yuz bergan muhim o‘zgarishlar, tub islohotlarning mazmun- mohiyatini ko‘rsatib berish va jamiyat hayotida, ijtimoiy turmush tarzida talabaning o‘rni, o‘zligini anglatish, shaxs, fuqaro maqomini tushunib yetishidan iborat. Fanni o‘qitishning vazifalari – boy tarixiy o‘tmish, xususan, o‘zbek davlatchiligiga tarixiy ekskursiya uyushtirish, qarama-qarshiliklarga boy ziddiyatli XX asr tarixi mazmun-mohiyatini ochib berish, mustaqillikka erishish arafasida O‘zbekistonda yuzaga kelgan murakkab ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy vaziyat hamda mustaqillik yillarida davlat boshqaruvi, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy hamda boshqa sohalarda amalga oshirilgan islohotlarning mazmun-mohiyatini talabalarga to‘liq tushuntirib berish, ularni Vatanga sadoqat va muhabbat ruhida tarbiyalash hamda milliy g‘urur va iftixorni shakllantirishdan iborat. II. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari) II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi: 1-mavzu. Kirish. “O‘zbekistonning eng yangi tarixi” o‘quv fanining predmeti, maqsadi va vazifalari, nazariy-metodologik tamoyillari. “O‘zbekistonning eng yangi tarixi” – O‘zbekiston tarixining uzviy va ajralmas qismidir. “Eng yangi tarix” tushunchasi va uning izohi. “O‘zbekistonning eng yangi tarixi” o‘quv fanining predmeti,				

maqsad va vazifalari. Fanni o'rganishning nazariy-uslubiy asoslari. Yuksak intellektual salohiyatli, ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash, komil insonni voyaga yetkazishda mamlakat eng yangi tarixining tutgan o'rnini. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning ma'naviy yetuk shaxsni tarbiyalashda tarixiy xotiraning o'rnini va saboqlari to'g'risidagi fikr-mulohazalari. XXI globallashtiruv asrida ta'lim sohasida mazkur fanni o'qitishdagi nazariy-konseptual yondashuv va ilg'or innovatsiyalar.

2-mavzu. O'zbekistonda mustaqillik g'oyalarining tarixiy asoslari.

Davlatchilik tushunchasi. Markaziy Osiyo hududidagi ilk davlat uyushmalari. O'zbek davlatchiligi va uning tarixiy bosqichlari. Qadimgi Xorazm, qadimgi Baxtriya. Eramizning IX asriga qadar davlatchilik rivoji. IX-XII asrlarda hukmronlik qilgan davlatlar. Amir Temur – buyuk davlat arbobi va sarkarda. O'rta Osiyoning xonliklarga bo'linib ketishi, uning sabab va oqibatlari. XVI-XIX asrlar birinchi yarmida O'rta Osiyodagi ijtimoiy-siyosiy ahvol. Turkiston o'lkasida Rossiya imperiyasi mustamlaka tuzumi. Milliy ozodlik harakatlari. Mustamlaka boshqaruv tartiboti va uning mohiyati. Sud-huquq sohasidagi o'zgarishlar. Sovet hukmronligi davrida O'zbekistonning markazga ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy qaramligi va uning oqibatlari. Sovetlarning qatag'on-zo'ravonlik siyosati va uning mohiyati.

Mamlakatimiz erki va ozodligi uchun kurashganlar: Shiroq, Spitamen, Jaloliddin Manguberdi. Jadid ma'rifatparvarlari.

3-mavzu. Mustaqillikka erishish arafasida O'zbekistondagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar.

XX asr 80-yillari o'rtalarida respublika ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy hayotidagi inqirozli holat. Markazning O'zbekistonda amalga oshirgan qatag'on-zo'ravonlik siyosati. "Paxta ishi", "o'zbek ishi". Aholi turmush tarzining og'irlashuvi. Orol fojiasi. Farg'ona voqealari. 1989-yil o'rtalarida respublika ijtimoiy-siyosiy hayotidagi o'zgarishlar. Milliy manfaatlar ustuvorligining o'sib borishi. I.A.Karimov – O'zbekistonning Birinchi prezidenti. Mustaqillik deklaratsiyasi va uning tarixiy ahamiyati. 1989-1991-yillarda amalga oshirilgan o'zgarishlar, ularning mohiyati. 1991-yil avgust voqealari. GKChP. Sovet davlatining tanazzulga yuz tutishi.

4-mavzu. Mustaqil O‘zbekiston Respublikasi tashkil topishining tarixiy ahamiyati. O‘zbekistonning o‘ziga xos istiqlol va taraqqiyot yo‘li.

Mustaqillik arafasida respublikadagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy ahvol. O‘zlikni anglashga intilishning kuchayishi. Siyosiy tizimdagi o‘zgarishlar. Mustaqillikning e‘lon qilinishi. O‘zbekiston Respublikasining tashkil etilishi. Mustaqillikning ilk davrida davlat suverenitetini mustahkamlash yo‘lidagi sa’y-harakatlar. Mustaqil taraqqiyotning dastlabki bosqichidagi muammolar. O‘zbekistonning o‘ziga xos taraqqiyot yo‘lining tanlashi. Taraqqiyotning “O‘zbek modeli” va uning o‘ziga xos xususiyatlari. O‘zbekistonning ijtimoiy-siyosiy rivojlanish strategiyasi: yangilanish va taraqqiyot yo‘li. O‘zbekistonning iqtisodiy mustaqilligini ta’minlashga qaratilgan strategiya asoslari. Mustaqillik me’yoriy-huquqiy asoslarining yaratilishi. Mustaqil O‘zbekiston Konstitutsiyasining qabul qilinishi va uning tarixiy ahamiyati. Davlat ramzlari.

5-mavzu. O‘zbekistonda demokratik, fuqarolik jamiyati asoslarining shakllanishi, amalga oshirilgan siyosiy islohotlar.

Milliy davlat boshqaruvi tizimi. Mustaqil O‘zbekistonda hokimiyatlar bo‘linishi prinsipi. O‘zbekistonda ko‘ppartiyaviylik tizimining shakllanishi va uning ahamiyati. Siyosiy partiyalar faoliyatidagi xususiyatlar. O‘zbekistonda parlament tizimi va undagi islohotlar. Huquq-tartibot organlari va sud tizimidagi o‘zgarishlar. O‘zbekistonda nodavlat-notijorat tashkilotlar va ularning siyosiy, ijtimoiy hamda iqtisodiy jarayonlardagi ishtiroki. Ijtimoiy-sherikchilik. O‘z-o‘zini boshqarish organlarining faoliyati va ularning jamiyatni demokratlashtirishdagi o‘rni. O‘zbekistonda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. Inson haq-huquqlarini ta’minlash va himoya qilish.

6-mavzu. Iqtisodiy islohotlar, xususiy mulkchilikning shakllanishi. O‘zbekistonda bozor munosabatlarining rivojlanishi.

O‘zbekiston Respublikasida bozor munosabatlarining shakllanishi, uning yo‘nalishlari, bosqichlari va xususiyatlari. Bozor munosabatlariga o‘tishning huquqiy asoslari. Iqtisodiy islohotlarning besh tamoyilini amalga oshirish mexanizmi. Pul islohotining o‘tkazilishi. Bozor infratuzilmasining shakllanishi, qishloq xo‘jaligidagi islohotlar, uning vazifalari va yo‘nalishlari. Sanoat, avtomobilsozlik sohasining rivojlanishi. Makroiqtisodiyotni barqarorlashtirishga erishish. Mamlakat iqtisodiyotining modernizatsiya va diversifikatsiya qilinishi, bank-moliya tizimini mustahkamlash

borasidagi chora-tadbirlar. Makroiqtisodiy barqarorlik tomon yo‘l olinishi.

7-mavzu. O‘zbekiston Respublikasida ijtimoiy sohadagi islohotlar.

Kuchli ijtimoiy siyosat konsepsiyasining shakllanishi, bosqichlari va rivojlantirilishi. Manzilli ijtimoiy himoya tizimining yaratilishi. Ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo‘naltirilgan aholi bandligi va real daromadlarini izchil oshirib borishi, sog‘liqni saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy- siyosiy faolligini oshirish, aholini uy-joy bilan ta‘minlash, yo‘l-transport muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmalarni rivojlantirish, yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish. Nodavlat notijorat tashkilotlarining ijtimoiy himoya masalasidagi ishtiroki.

Yangi O‘zbekistonda oila instituti va uning davlat tomonidan qo‘llab- quvvatlanishi. Gender tengligi. Xotin-qizlarga bo‘lgan munosabat. Onalik va bolalik haq-huquqlarini himoya qilinishi. O‘zbekiston Respublikasi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonunning mazmun-mohiyati, aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish.

8-mavzu. Mustaqillik yillarida O‘zbekistondagi ma‘naviy va madaniy taraqqiyot.

Milliy istiqlol g‘oyasi va mafkuraviy masalalar. Milliy urf-odatlar, qadriyatlar va an‘analarning qayta tiklanishi. Mustaqillik yillarida buyuk ajdodlar va tarixiy shaxslarga bo‘lgan e‘tibor. Mustaqillik yillarida ajdodlar merosi va milliy qadriyatlarni tiklash borasidagi davlat siyosati.

O‘zbekistondagi tarixiy - Xiva, Buxoro, Samarqand, Shaxrisabz, Termiz, Qarshi, Marg‘ilon shaharlari yubileyларining nishonlanishi. Toshkent shahrining “Islom madaniyati poytaxti” deb e‘lon qilinishi va uning ahamiyati. Madaniyat va san‘at sohasining rivojlanishi. Milliy sport turlarining rivojlantirilishi.

Yangi O‘zbekistonning uchinchi renessans tomon tutgan yo‘li. “Beshta tashabbus” va uning yoshlar ma‘naviyatini yuksaltirishdagi o‘rni. O‘zbekistonda millatlararo va dinlararo munosabatlardagi barqarorlikni ta‘minlash borasidagi davlat siyosati. Millatlararo munosabatlar sohasida O‘zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiyasi. Amaliy san‘at, rassomchilik, teatr va kino san‘ati. O‘zbekistonda turizm sohasining rivojlanishi. Samarqand shahri - jahon turizm poytaxti.

9-mavzu. O‘zbekiston Respublikasida ta‘lim sohasida amalga

oshirilgan islohotlar.

Mustaqillikning ilk yillarida ta'lim tizimidagi o'zgarishlar. Yangi jamiyat qurishda ta'lim va tarbiyaning o'рни va roli. 1992-yilgi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"ning (1997 y.) qabul qilinishi. Ta'lim milliy modelining shakllanishi, rivojlanishi va sohadagi muammolar. Mustaqillik yillarida ilm-fanning rivojlanishi.

Yangi O'zbekistonda ta'lim tizimidagi islohotlar. Zamonaviy o'qitish va ta'lim tizimiga doir davlat siyosati. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi yangi tahrirdagi qonuni (2020 y.). Ta'lim sohasida xalqaro hamkorlikning yo'lga qo'yilishi. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi.

10-mavzu. O'zbekiston va jahon hamjamiyati

O'zbekistonning tinchliksevar tashqi siyosati va uning jahon hamjamiyati tomonidan tan olinishi. O'zbekistonning xalqaro tashkilotlar va xorijiy mamlakatlar bilan iqtisodiy-ijtimoiy aloqalarning yo'lga qo'yilishi. O'zbekiston Respublikasining BMTga a'zo bo'lishi va jahon hamjamiyatidagi o'ziga xos o'рни. O'zbekistonning MDHdagi o'рни va mavqeining oshib borishi. O'zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan o'zaro hamkorlik aloqalari. O'zbekistonning Yevropa Ittifoqi mamlakatlari bilan istiqbolli hamkorliklari.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning o'zaro manfaatli va yaqin qo'shniçilik tamoyillariga asoslangan ochiq va shaffof tashqi siyosati. O'zbekistonning mintaqada tinçlik va barqarorlikni ta'minlash borasida olib borayotgan siyosati. Markaziy Osiyoda xavfsizlik masalalari, terrorizm, giyohvandlik va odam savdosiga qarshi kurashda O'zbekiston Respublikasining faolligi. O'zbekistonning ShHT bilan aloqalarining kengayishi. ShHTning Samarqand deklaratsiyasi. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga a'zo davlatlar bilan yangi strategik sherikçiligi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan olib borilayotgan faol tashqi siyosatning jahon hamjamiyati tomonidan e'tirof etilishi.

Mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat olib borish.

11-mavzu. Yangi O'zbekiston ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotida ro'y berayotgan o'zgarishlarning xalqaro reyting va indekslarda aks etishi

"O'zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o'rnini yaxshilash hamda davlat organlari va tashkilotlarida ular bilan

tizimli ishlashning yangi mexanizmini joriy etish” borasidagi davlat siyosati, huquqiy-normativ hujjatlarning qabul qilinishi, mazkur yo’nalishdagi ishlarning samaradorligiga to’siq bo’layotgan muammolarni bartaraf etish yuzasidan olib borilayotgan chora-tadbirlar:

O‘zbekiston Respublikasi uchun ustuvor bo’lgan xalqaro reyting va indekslar bo’yicha samaradorligining eng muhim ko’satkichlarini oshirish borasida olib borilayotgan chora-tadbirlar. “Biznes yuritish indeksi”, Boshqaruv sifati indikatorlari, Elektron hukumatni rivojlantirish reytingi, “Korrupsiyani qabul qilish indeksi”, “Logistika samaradorligi indeksi”, “Jahon bankining Statistik salohiyat indeksi”, “Iqtisodiy erkinlik indeksi”, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining (IHTT) mamlakatlarga xos xatarlarni tasniflash tizimi. “Inson kamoloti indeksi”, “Huquq ustuvorligi indeksi”, “Jahon mamlakatlari demokratiyasi indeksi”, “Matbuot erkinligi indeksi” va boshqalar.

12-mavzu. Yangi O‘zbekistonda Prezident Sh.M.Mirziyoyev tashabbusi ostida amalga oshirilayotgan islohotlar, xalqchil va insonparvar davlat qurishning ijtimoiy-siyosiy ahamiyati

2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo’nalishi bo’yicha Harakatlar strategiyasining hayotga tatbiq etilishi va uning natijalari. Milliy tiklanishdan-milliy yuksalish sari g’oyasi va uning mohiyati.

O‘zbekiston Respublikasi Yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining umumxalq tomonidan qabul qilinishi (2023 y. 30 aprel). Konstitutsiya XXI asr zamonaviy O‘zbekistonining asosiy qonuni.

2016-yil sentyabridan virtual qabulxonalarining ochilishi. 2017-yildan keyingi davrda jamiyatda amalga oshirilayotgan siyosiy o’zgarishlarning xususiyatlari, davlat organlarining xalq bilan muloqotining kengayishi, Xalq qabulxonalarining faoliyati hamda mahalla institutlarining yanada takomillashuvi bilan bog’liq bo’lgan jarayonlar.

Inson haq-huquqlarini himoya qilish va shaxs qadr-qimmati ta’minlash borasida sud organlarining faoliyati va O‘zbekiston sud huquq tizimida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar. Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish.

Yangi O‘zbekistonda ijtimoiy sohaga bo’lgan zamonaviy munosabat. Ta’lim, sog’liqni saqlash, turizm, sport va boshqa sohalardagi tub o’zgarishlar.

2022-2026-yillarga mo’ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot

strategiyasining mazmun-mohiyati va ustuvor yo‘nalishlari. “Taraqqiyot strategiyasi” doirasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar. O‘zbekiston-2030 strategiyasi. Uning xalqaro hamjamiyat tomonidan e’tirof etilishi.

III. Seminar mashg‘ulotlari bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar

Seminar mashg‘ulotlari uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. “O‘zbekistonning eng yangi tarixi” o‘quv fanining predmeti, maqsadi va vazifalari, nazariy-metodologik tamoyillari.
2. O‘zbekistonda mustaqillik g‘oyalarining tarixiy asoslari
3. Mustaqillikka erishish arafasida O‘zbekistondagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar.
4. Mustaqil O‘zbekiston Respublikasi tashkil topishining tarixiy ahamiyati. O‘zbekistonning o‘ziga xos istiqlol va taraqqiyot yo‘li.
5. O‘zbekistonda demokratik, fuqarolik jamiyati asoslarining shakllanishi, amalga oshirilgan siyosiy islohotlar.
6. Iqtisodiy islohotlar, xususiy mulkchilikning shakllanishi. O‘zbekistonda bozor munosabatlarining rivojlanishi.
7. O‘zbekiston Respublikasida ijtimoiy sohadagi islohotlar.
8. Mustaqillik yillarida O‘zbekistondagi ma’naviy va madaniy taraqqiyot.
9. O‘zbekiston Respublikasida ta’lim sohasida amalga oshirilgan islohotlar.
10. O‘zbekiston va jahon hamjamiyati.
11. Yangi O‘zbekiston ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotida ro‘y berayotgan o‘zgarishlarning xalqaro reyting va indekslarda aks etishi.
12. Yangi O‘zbekistonda Prezident Sh.M.Mirziyoyev rahbarligi va tashabbusi ostida amalga oshirilayotgan islohotlar.
13. Yangi O‘zbekistonda xalqchil va insonparvar davlat qurishning ijtimoiy- siyosiy ahamiyati.

IV. Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etiladigan topshiriqlar:

1. IX-XII asrlarda mamlakatimiz hududida ro‘y bergan madaniy uyg‘onish (Renessans). Buyuk allomalarning jahon sivilizatsiyasiga qo‘shgan hissasi.
2. Jaloliddin Manguberdi - Vatan himoyachisi.
3. Amir-Temur buyuk davlat arbobi.
4. Mirzo Ulug‘bek - davlat arbobi va buyuk olim.

5. Jadid ma'rifatparvarlarining o'lka ijtimoiy-ma'naviy hayotida tutgan o'rni

(Munavvar Qori, Fitrat, Behbudiy, Avloniy va boshq.).

6. "Qayta qurish" yillarida O'zbekistondagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat.

7. O'zbekistonda ijtimoiy sohada amalga oshirilayotgan o'zgarishlar mazmun va mohiyati.

8. Mustaqillik yillarida davlat boshqaruvi tizimida amalga oshirilgan islohotlar.

9. Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ma'naviy o'zgarishlar.

10. O'zbekiston Respublikasida ommaviy axborot vositalarining faoliyati.

11. Mustaqillik yillarida qishloq xo'jaligi va sanoat sohasidagi o'zgarishlar.

12. Yangi O'zbekistonda inson haq-huquqlari va erkinliklari kafolatining yaratilishi.

13. Yangi O'zbekiston ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotida ro'y berayotgan o'zgarishlarning xalqaro reyting va indekslarda aks etishi.

14. O'zbekistonning xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalari

15. O'zbekistonning Markaziy Osiyoda tinchlik va barqarorlikni ta'minlashdagi o'rni.

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

- Mustaqillik yillarida mamlakatimiz bosib o'tgan tarixiy yo'lning mazmun- mohiyatini, O'zbekistonning eng yangi tarixida amalga oshirilgan o'zgarishlarning ahamiyatini;

- Zamonaviy jarayonlarda O'zbekistonning jahon hamjamiyati bilan integratsiyasi, xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, O'zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o'rni va nufuzini ortib borishi kabi jarayonlarni tarixiylik va xolislik nuqtai nazaridan bilishi kerak;

- O'zbekistonning eng yangi tarixi muammolarini o'rganish, dunyoqarashni mustahkamlashda milliy mustaqillik g'oyasini qo'llay bilish, atrofida sodir bo'layotgan jarayonlarga o'z munosabatini bildirish, jamiyat va inson dunyoqarashi rivojida tarix fanining o'rnini anglash va bugungi kunda sodir bo'layotgan voqealarning tarixdagi muhim

voqealar bilan bog‘liqligini bilish
ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak.

- O‘zbekistonning eng yangi tarixini chuqur bilish, ma’naviy-milliy va umuminsoniy masalalar bo‘yicha o‘z qarashlarini ilmiy asoslashni va ifodalashni bilish, milliy mustaqillik g‘oyalariga amal qiladigan faol hayotiy dunyoqarash kabi malakalarga ega bo‘lishi kerak.

VI. Ta’lim texnologiyalari va metodlari:

- ma’ruzalar;
- interfaol keys-stadilar;
- seminarlar (mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar);
- guruhlarda ishlash;
- taqdimotlarni qilish;
- individual loyihalar.

VII. Kreditlarni olish uchun talablar:

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘la o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va nazorat uchun berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo‘yicha yozma ishni topshirish.

Rahbariy adabiyotlar:

1. Sh.M. Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. - Toshkent: O‘zbekiston, 2017.
2. Sh.M. Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent: O‘zbekiston, 2017.
3. Sh.M. Mirziyoyev. Qonun ustuvorligi va inson ma’nfatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yiligiga bag‘ishlangan tantanali marosimidagi ma’ruzasi. - Toshkent: O‘zbekiston, 2017.
4. Sh.M. Mirziyoyev. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - Toshkent: O‘zbekiston, 2017.
5. Sh.M. Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To‘ldirilgan ikkinchi nashri. - Toshkent: O‘zbekiston, 2022.
6. Sh.M. Mirziyoyev. Yangi O‘zbekistonda erkin va faravon yashaylik. 5-jild. - Toshkent: O‘zbekiston, 2023.

7. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekistonda taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo‘lini qat’iy davom ettiramiz. 6-jild. - Toshkent: O‘zbekiston, 2023.
8. Sh.M. Mirziyoyev. Hozirgi zamon va Yangi O‘zbekiston. - Toshkent: O‘zbekiston, 2024.

Asosiy adabiyotlar

1. R.H. Murtazayeva O‘zbekistonda millatlararo munosabatlar va tolerantlik. Darslik. - Toshkent: Mumtoz so‘z, 2019.
2. R.H.Murtazayeva, A.A.Yermetov, A.A.Odilov va boshq. O‘zbekistonning eng yangi tarixi. - Toshkent, 2024.
3. A.S.Sagdullayev umumiy tahriri ositida. O‘zbekiston tarixi. 1-jild. Darslik. – Toshkent: NIF MSH. 2024.
4. B.J.Eshov, A.A.Odilov. O‘zbekiston tarixi. 2-jild. Darslik. – Toshkent: NIF MSH. 2024.
5. К.Д.Саипова. Новейшая история Узбекистана (учебное пособие). –Ташкент: NIF MSH, 2024.

Qo‘shimcha adabiyotlar

- 1.O‘zbekiston tarixi (1917-1991 yillar). 2 tom. Mas’ul muharrirlar: R.Abdullayev, Q.Rajabov, M.Rahimov. Darslik.- Toshkent: O‘zbekiston, 2019.
2. O‘zbekiston tarixi. Mas’ul muharrir R.H.Murtazayeva. Darslik. – Toshkent, 2020.
3. Levitin L. O‘zbekiston tub burilish pallasida. - Toshkent: O‘zbekiston, 2005.
4. Usmonov Q. O‘zbekistonning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvi. - Toshkent: Moliya, 2003.
5. O‘lmasov A., Vaxobov A. Iqtisodiyot nazariyasi. - Toshkent: Sharq, 2006.
- 6.O‘zbekistonda millatlararo munosabatlar va bag‘rikenglik: tarixiy tajriba va hozirgi zamon. Mas’ul muharrir R.H.Murtazayeva. - Toshkent: Mumtoz so‘z, 2010.

7. O‘zbekiston tarixi (1917-1991 yillar). 2 tom. Mas’ul muharrirlar: R.Abdullayev, Q.Rajabov, M.Rahimov. - Toshkent: O‘zbekiston, 2019.
8. Murtazayeva R.H. O‘zbekistonda millatlararo munosabatlar va tolerantlik. Darslik. - Toshkent: Mumtoz so‘z, 2019.
9. Yunusova X.E. O‘zbekistonda millatlararo munosabatlar va ma’naviy jarayonlar (XX asr 80-yillari misolida). - Toshkent: Abu matbuot-konsalt, 2009.
10. Qoraqalpog‘iston tarixi (1917-1994 yy.). - Nukus, 1995.
11. G‘afforov Ya. Xalqaro tashkilotlar hamkorligi. 1-2-qism. – Toshkent, 2021.
12. O‘zbekiston tarixi. Mas’ul muharrir R.H.Murtazayeva. – Toshkent, 2020.

Axborot manbalari

1. www.ziyounet.uz.
2. www.edu.uz.
3. www.google.uz.
4. www.gov.uz.

Fan dasturi Buxoro davlat universiteti Ilmiy Kengashning 2025-yil 29-avgustdagi 1-sonli bayonnomasi bilan ma’qullangan.

Fan/modul uchun mas’ullar:

Boltayev B.B.- Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrası dotsenti,
t.f.f.d (PhD)

Taqrizchilar:

To‘raev H.H. – Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrası
professori, tarix fanlari doktori

Niyazova M.I – Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrası dotsenti,
T.f.n.